



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

Po'latova Muqaddas Qobilboyevna

Toshkent viloyati Parkent tumani

3-sonli "Qaldirg'och" nomli DMTT tarbiyachisi

+998994022886

qobilboyevnamuqaddas@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8366758>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2023

Accepted: 20th September 2023

Online: 21th September 2023

KEY WORDS

Ta'lim, maktab, MTT, bola, shaxs, maktabgacha ta'lim, sog'lom, bilim, mutaxassiss, Y.A. Kamenskiy, idrok, tasavvur.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va bunda ota-ona hamda tarbiyachining tutgan o'rni haqida batafsil yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o'quvchilarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning zamonaviy metodlaridan foydalangan holda olib borilishi ya'ni pedagoglar bir qolipda emas erkin tanlash imkoniyatlaridan foydalanishmoqda. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshigacha bo'lgan davrda oladi. Mana shu dalilni ozi bolalarning yetuk va barkamol shaxs bolib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol korsatib turibdi. Hozirgi paytda bog'chagga borgan bola bilan bormagan bolani solishtirganda bolajonlarning fikrlash darajasi, dunyoqarashi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligi bilinib turadi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar jismonan, ruhan aqlan o'z yoshiga mos holda bilim jihatdan, hissiy jihatdan, kuch jihatdan rivojlanib boradi. Bunda bolaga ota ona va albatta tarbiyachi yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni o'z maqsadlariga erishishida yordam beradi. Bolani qanday bolsa shunday qabul qiladi. Bolalarni qanday qobiliyatga ega bolsa uni rivojlanishiga hissa qoshadi. Turli faoliyatlar orqali bolalarni ta'lim olishi va bilim konikmaga ega bolishi uchun xizmat qiladi. Bolani rivojlanishiga ijobiy ozgarishlarga erishishi uchun shu faoliyatni rejalashtiradi va o'z ustida ishlab doimo izlanib qo'llayotgan usullarni ta'lim jarayoniga moslashtirib boradi. Faoliyatlar



jarayonada bolalar biladigan, bajarib ko'rgan narsalardan emas balki yangi konikma va tushunchalar hosil qilishi yangi bilimga ega bolishi uchun kutilgan natija hosil qilinishi bolalarni zavqlantiradi. Bola zerikmaydi o'zi hohab bajargan ishi uchun ragbatlantirilayotganda ijtimoiy konikmmalari ham shakllanib boradi. U o'zining "Men" ga ega boladi, o'ziga va atrofida qilargi ishonch, shahs sifatida o'z tengdoshlari va kattalar bilan muloqot yurita olishda, atrof muhitga ijobiy munosabatda bo'lishi betakror shahs sifatida rivojlanishiga asosiy omil bola oladi

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. MTT tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTTda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdano'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yin-qaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar. MTT bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq boigan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan, o'z xohishi bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi, bundan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma'mum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bolalar o'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak boladi. Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi. Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika-tika) ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim bolmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi. Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq boladi. Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot



tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiyo'rnida hamo'zgarishlar sodir boiadi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi. Oldingi jamoada bola o'zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bolao'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o'qish bolib qoladi. Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz boigani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega boiishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bolish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabato'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlan-magani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabdao'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfdagi o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmuninio'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikano'qitishdao'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvnio'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyor-garlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarinio'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlash-tirilgan, jadalo'qitish zarur hisoblanadi. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har tarafiama shakllantirishda ay-nan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi. 7 yosh-bola yangi sharoitga tezo'rganadigan vao'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A. Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonunining 8 –moddasida:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.
- Maktabgacha ta'lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo'ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida



shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o'z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yicha majburiyatini oldi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari, bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bolasini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bermagan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishiga va istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bolaning o'qishga intellektual tayyorgarligini shakllantirish, uning kattalar a'zolarining ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham (93%) teng ravishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, respondentlarning 40% i boshqa ta'lim muassasalari yordamida bolaning intellektual tayyorgarligini shakllantirish muvaffaqiyatidan shubhalanmoqda. Bu yana bir bor tasdiqlaydiki, bunday trening, mutaxassislarining fikriga ko'ra, ko'pincha "o'qitish" ning bir turi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolada ilmiy bilimlarning boshlang'ich asoslarini to'liq rivojlanishini ta'minlamaydi.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bu o'qituvchilar va psixologlarning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, bolalar bog'chalarida maktabga tayyorgarlik ko'radigan dasturlarning bilimlari ko'pincha maktabning birinchi sinfida talab qilinadigan narsalardan sezilarli darajada oshib ketadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi oila va tarbiyachining bola hayotidagi ahamiyati, uning bilish jarayonlari shakllanib borishidagi hamkorlik natijalari bolalarning ijobiy shakllanishidagi muhim omil hisoblanadi.

References:

1. <https://cyberleninka.ru>
2. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154>
3. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510>
4. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2056>
5. <https://azkurs.org>